INNOVATIONS IN TECHNOLOGY AND SCIENCE EDUCATION
ISSN 2181-371X
https://science-research.org.uz/index.php/ITSE

TA’LIMDA INKLYUZIV TA’LIMNING O‘RNI VA AHAMIYATI

Roziqova Ra’no Rustamovna
tayanch doktorant, BuxDU
ranorozikova1@emil.uz (99)552-86-56

Annotatsiya. Ushbu maqolada ta’limda inklyuziv ta’limning o‘rni va ahamiyati yoritilgan. Inklyuziv ta’limning mazmuni, asosiy vazifalari, ijtimoiy va psixologik ta’siri tahlil qilingan. Shuningdek, mazkur yondashuvning o‘quvchilar shaxsiy rivojlanishiga, teng imkoniyatlar yaratishga va jamiyatdagi ijtimoiy integratsiyaga qo‘shgan hissasi haqida so‘z yuritilgan. Maqolada ta’lim jarayonida inklyuziv yondashuvni joriy etishning ijobiy jihatlari misollar bilan asoslab berilgan.

Abstract. This article discusses the role and importance of inclusive education in primary schools. The content, main tasks, social and psychological impact of inclusive education are analyzed. It also discusses the contribution of this approach to the personal development of students, the creation of equal opportunities and social integration in society. The article substantiates the positive aspects of introducing an inclusive approach in the educational process with examples.

Kalit so‘zlar: inklyuziv ta’lim, teng imkoniyat, ijtimoiy integratsiya, maxsus ehtiyojli o‘quvchi

Keywords: inclusive education, relational classroom, equal opportunities, social integration, student with special needs

Kirish

Hozirgi zamon ta’lim tizimi barcha bolalarning bilim olish huquqini teng darajada ta’minlashga intiladi. Inklyuziv ta’lim tushunchasi haqida to‘xtaladigan bo‘lsak, “inklyuziv” so‘zi ingliz tilidan olingan bo‘lib, “uyg‘unlashmoq”, “qamrab olmoq”, “nogiron va sog‘lom bolalar o‘rtasidagi to‘siqlarni bartaraf etish” ma’nolarini bildiradi. Inklyuziv ta’lim – bu davlat siyosati bo‘lib, nogiron yoki boshqa sabablar tufayli maxsus yordamga muhtoj, kasallangan bolalar uchun moslashuvchan va individuallashgan yordam tizimi hamda barcha bolalarni teng ko‘rishni ko‘zda tutadigan ta’lim turidir. Bunda rivojlanishida uchraydigan nuqsonlar va iqtisodiy qiyinchiliklardan qat’i nazar, imkoniyati cheklangan bolalar ijtimoiy hayotga moslashtirishga yo‘naltirilgan o‘quv jarayoniga jalb etiladi. Inklyuziv ta’lim — maxsus ehtiyojli bolalar va boshqa o‘quvchilar birgalikda ta’lim oladigan, har



birining qobiliyati va ehtiyojidan kelib chiqib o‘qitiladigan tizimdir. Bu yondashuvda farqli imkoniyatlarga ega bolalar jamiyatdan ajratilmaydi, balki ularning ijtimoiy va shaxsiy rivojlanishi qo‘llab-quvvatlanadi.

Imkoniyati cheklangan bolalarni aniqlay olish juda muhim. Chunki bu uning kelajakdagi rivojiga kata ta’siir ko‘rsatadi. Agar bolada o‘z tengdoshlaridan orqaga qolish holatlari kuzatilsa albatta, inklyuziv ta’limda yoki ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalarida o‘qitilishi va tarbiyalanishi lozim. Bola qachonki imkoniyati cheklangan deb hisoblanadi?! Uning umumiy rivojlanishiga har tomondan kuchli ta’sir ko‘rsatadigan nuqsonlari bo‘lsagina. Misol uchun bolaning faqat bir qulog‘I eshitmaydi, lekin bu holat uning har jihatdan rivojlanishiga ta’sir etmaydi. Maktabda ham o‘z tengdoshlari singari fanlarni o‘zlashtira oladi. Katta yoshli kishilarda ham ma’lum sabablarga ko‘ra nuqsonlar paydo bo‘ladi, ammo bu kishilarni imkoniyati cheklangan deb hisoblash to‘g‘ri emas. Agar bolada jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida ko‘zga tashlanadigan og‘ir, jiddiy va keskin o‘zgarishlar bolaning shaxs sifatida shakllanishiga o‘zining salbiy ta’sirini ko‘rsatadi. Shuning uchun ham bunday bolalarga ta’lim va tarbiya berish uchun maxsus sharoitlar, maxsus darsliklar, maxsus pedagoglarni shakllantirish va ularni ham tengdoshlari orasida o‘qitishni ta’minlab berish kerak, chunki ular alohida ta’limga yordamga muhtoj.

Inklyuziv ta’limning yana bir muhim jihati bu o‘zaro muloqotdir. Har xil ijtimoiy guruhga mansub bolalar bir-biri bilan muloqotda bo‘lish orqali yangi bilimlar, madaniy jihatlarni o‘zlashtiradi, tolerantlikni o‘rganadi. Bu esa butun jamiyat uchun foydalidir. Bolalar qanchalik erta turlicha insonlar bilan teng muhitda yashashga odatlansa, ular ulg‘ayganda shunchalik ijtimoiy moslashuvchan, bag‘rikeng va ongli bo‘lib voyaga yetadilar. Pedagogik oliygohlar inklyuziv ta’limga yo‘naltirilgan yangi metodikalarni joriy etishi, talabalarni bu sohaga tayyorlashi kerak. Yangi dars metodlari, interaktiv yondashuvlar, ko‘rgazmali vositalar, AKT vositalaridan foydalanish, maxsus resurs markazlari yaratish orqali inklyuziv muhitni yanada boyitish mumkin. Shu bilan birga, tajriba almashish, xalqaro hamkorliklar, xorijiy tajribalarni o‘rganish ham bu borada katta yordam beradi.



Ma’lumki, keyingi yillarda mamlakatimizda inklyuziv ta’limga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu borada Prezidentimizning 2020 yil 13 oktyabrdagi “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi. Shuningdek, 2020-yil 23-sentyabrda qabul qilingan yangi tahrirdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunga ilk bor inklyuziv

(uyg‘unlashgan) ta’lim tushunchasi kiritildi. Jarayonda yurtimiz umumta’lim maktablarida inklyuziv ta’limni joriy etish rejasi belgilab olindi. Unga ko‘ra, 2025- yilgacha alohida ta’limga ehtiyoji bor bolalarning 40 foizi odatiy maktablarga jalb qilinishi ko‘zda tutilgan.

Xulosa

Ta’lim tizimida inklyuziv ta’limni joriy etish nafaqat maxsus ehtiyojli bolalarning rivojlanishi, balki barcha o‘quvchilarning shaxsiy, ijtimoiy va axloqiy sifatlarini shakllantirishda katta ahamiyatga ega. Bu yondashuv orqali jamiyatda bag‘rikenglik, hamjihatlik va insonparvarlik qadriyatlari mustahkamlanadi. inklyuziv ta’lim orqali har bir bola o‘z imkoniyatlarini to‘liq namoyon qila oladi, o‘z-o‘ziga ishonch hosil qiladi va jamiyatda faol ishtirok etuvchi shaxs sifatida shakllanadi. Bu esa O‘zbekistonning kelajagi uchun muhim qadriyatlardan biridir.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlarini ta’minlash va qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–4860-son qarori. – Toshkent, 2020.
3. UNESCO. “Inclusive Education: Guidelines for Policy and Practice”. – Paris, 2017.
4. Booth T., Ainscow M. “The Index for Inclusion: Developing Learning and Participation in Schools”. – Bristol: CSIE, 2011.
5. Mahmudova M. “Inklyuziv ta’lim: nazariya va amaliyot”. – Toshkent: Fan, 2021.